



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH  
VAZIRLIGI TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI REKTOR V.V.  
B.INING  
BUYRUG‘I**

2023 yil “8” may 00695 - son

**Malakaviy imtihonni o‘tkazish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 28-dekabrda “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta‘lim va oliy malakali ilmiy va ilmiy pedagogik kadrlarni attestatsiyadan o‘tkazish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 365-sonli va 2017-yil 22-maydagi “Oliy ta‘limdan keyingi ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 304-sonli qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining (keyingi o‘rinlarda - OAK) 2022-yil 2-dekabrda 01-07/2469-sonli xatining ijrosini ta‘minlash maqsadida

**BUYURAMAN:**

1. Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor F.L.Azizova hamda Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i Z.A. Muminovaga:

OAKning “Malakaviy imtihonlarni o‘tkazish to‘g‘risida”gi nizomiga asosan 1-ilovada nomlari ko‘rsatilgan 131 nafar ilmiy izlanuvchilarga 2023-yil 11-may kuni soat 10-00da Chet tili (ingliz tili, nemis tili va boshqa xorijiy tillar) fanidan, 2-ilovada nomlari ko‘rsatilgan 74 nafar ilmiy izlanuvchilarga 2023-yil 12-may kuni soat 10-00da mutaxassislik fanlaridan malakaviy imtihonlar o‘tkazilsin;

imtihonlarni o‘tkazish jarayonida OAK tomonidan tasdiqlangan 3 - ilovada nomlari keltirilgan professor-o‘qituvchilarning, hamda 4 - ilovada nomlari keltirilgan nazoratchi professor-o‘qituvchilarning to‘liq ishtirok etishi ta‘minlansin;

imtihonlar tartibli, oqilona va sifatli o‘tkazilsin;

imtihondan o‘tgan talabgorlarga o‘rnatilgan tartibda guvohnoma berilishi ta‘minlansin.

2. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor F.L.Azizova zimmasiga yuklatilsin.

**Rektor v.v.b.**



**Sh.Boymuradov**

**Buyruq kelishuvi**

**Tayyorladi:**

**Z.Muminova**

**Bo'lim boshlig'i**

**Kelishildi:**

**Sh.Boymuradov**

**Rektor v.v.b.**

**F.Azizova**

**Ilmiy ishlar va innovatsiyalar  
bo'yicha prorektor**

**S.Yusupova**

**Bo'lim boshlig'i**